

2020-yil 1-yanvar holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 5554 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2563 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4450 ta (20,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 26000 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yilning 1-yanvar holatiga 26000 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,6 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,9 % savdo, 13,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 13,4 % sanoat, 12,1 % qurilish, 4,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,4 % tashish va saqlash, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,1 % axborot va aloqa hamda 25,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, ming birlik		01.01.2020 yil	
	01.01.2019 yil	01.01.2020 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	21550	26000	120,6	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2766	3528	127,5	13,6
Sanoat	2560	3479	135,9	13,4
Qurilish	2662	3144	118,1	12,1
Savdo	4918	6203	126,1	23,9
Tashish va saqlash	781	894	114,5	3,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	888	1189	133,9	4,6
Axborot va aloqa	252	296	117,5	1,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	498	613	123,1	2,4
Boshqa turlari	6225	6654	106,9	25,5

Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (5393 ta), Chiroqchi (2108 ta), Koson (2041 ta), Qarshi (2040 ta) va Kitob (1738 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mirishkor (877 ta), Muborak (940 ta) hamda Nishon (987 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 25259 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4344 ta (20,8 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,9 % savdo, 13,4 % sanoat, 13,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 12,1 % qurilish, 4,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa va 25,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Qarshi shahri (5163 ta), Chiroqchi (2051 ta), Koson (2006 ta), Qarshi (1998 ta) va Kitob (1718 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mirishkor (873 ta), Nishon (884 ta), hamda Muborak (908 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar- dekabr oylarida 5554 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,8 martaga ko'pdir.


Yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Qarshi shahri (1055 ta), Qarshi (479 ta), Chiroqchi (456 ta) va Qamashi (374 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Muborak (165 ta), Dehqonobod (227 ta), Nishon (235 ta), G'uzor (249 ta), Mirishkor (260 ta) tumanlari korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng ko'pi savdo (1615 ta), sanoat (1155 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (931 ta), qurilish (590 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (52 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (130 ta), hamda tashish va saqlash (146 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tijorat korxonalarini

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1 - yanvar holatiga 20462 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 8441 ta, oilaviy korxonalar - 1297 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 10228 ta va boshqalar 496 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonona



Oilaviy korxonona




Unitar korxonona



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2020-yil 1- yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 192 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 107 taga yoki 2,2 martaga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Afg'oniston va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2020-yil 1- yanvar holatiga xorijiy kapital ishtirokida 192 ta korxonona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonona va tashkilotlarning eng yuqorisi Qarshi shahri (54 ta), Qarshi (18 ta), Kitob (15 ta) va Nishon (13 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Mirishkor (4 ta), Shahrisabz tumanlari hamda Shahrisabz shahar (5 ta) hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 141 tasi qo'shma korxonalar, 51 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faollik darajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Qashqadaryo viloyati	192	100,0
Qarshi sh.	54	28,2
Shahrisabz sh.	5	2,6
<i>Tumanlar:</i>		
G'uzor	10	5,2
Dehqonobod	11	5,7
Qamashi	13	6,8
Qarshi	18	9,4
Koson	13	6,3
Kitob	15	7,8
Mirishkor	4	2,1
Muborak	7	3,6
Nishon	13	6,8
Kasbi	6	3,1
Chiroqchi	7	3,6
Shahrisabz	5	2,6
Yakkabog'	11	5,7


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar - dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 100 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 71 taga ko'paygan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Qarshi shahar (24 ta yoki jamidagi ulushi 24,0 %), Qarshi tumani (11 ta yoki 11,0 %) va Nishon tumanlari (10 ta yoki 10,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Muborak (2 ta yoki 2,0 %), Shahrisabz (2 ta yoki 2,0 %), Kasbi (3 ta yoki 3,0 %) va Mirishkor tumani (3 ta yoki 3,0 %) hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 13 ta, Qozog'iston Respublikasi - 11 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 10 ta, Afg'oniston - 10 ta va Turkiya Respublikasi - 10 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (55 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (16 ta), savdo (11 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (6 ta), faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqa hamda tashish va saqlash (1 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (3 ta) tashkil etgan.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020-yil 1- yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 20304 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2019-yil 1- yanvar holatiga qaraganda 25,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4295 tasi (21,1 %) Qarshi shahri, 1668 tasi (8,2 %) Qarshi, 1633 tasi (8,0 %) Koson tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamiyatdagi ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

• Eng katta ulushi

- Qarshi sh
21,1 %
- Qarshi
8,2 %
- Koson
8,0 %
- Chiroqchi
8,0 %
- Shahrisabz sh.
6,9 %
- Qamashi
6,9 %
- Kitob
6,8 %
- Yakkabog'
6,5 %

• Eng kichik ulushi

- Dehqonobod
4,9 %
- G'uzor
4,7 %
- Shahrisabz
4,4 %
- Kasbi
3,8 %
- Muborak
3,5 %
- Nishon
3,2 %
- Mirishkor
3,1 %


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 20304 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6005 tasi (29,6 %) - savdo, 3356 tasi (16,5 %) - sanoat, 3355 tasi (16,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3021 tasi (14,9 %) - qurilish, 1124 tasi (5,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 852 tasi (4,2 %) - tashish va saqlash, 460 tasi (2,3 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1851 tasi (9,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-dekabr oylarida 5154 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,1 martaba ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahri (983 ta), Qarshi (421 ta), Chiroqchi (418 ta) va Kasbi (338 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Muborak (153 ta), Dehqonobod (211 ta), Nishon (215 ta), Mirishkor (232 ta) hamda G'uzor (241 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1607 ta), sanoatda (1151 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (928 ta), qurilishda (589 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (52 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (110 ta) hamda tashish va saqlashda (146 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-yanvar holatiga 1335 tani tashkil etib, ulardan 1297 tasi yoki 97,2 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 1,9 martaga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 33,2 % yoki 431 tasi sanoat, 20,5 % yoki 266 tasi savdo, 18,6 % yoki 241 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,6 % yoki 202 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,5 % yoki 33 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,4 % yoki 18 tasi qurilish, 0,7 % yoki 9 tasi tashish va saqlash, 0,6 % yoki 8 tasi axborot va aloqa hamda 6,9 % yoki 89 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda savdo, eng kami esa axborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Qashqadaryo viloyati	687	100,0
Qarshi sh.	92	13,4
Shahrisabz sh.	91	13,2
<i>Tumanlar:</i>		
G'uzor	67	9,7
Dehqonobod	6	0,9
Qamashi	32	4,7
Qarshi	61	8,9
Koson	22	3,2
Kitob	35	5,1
Mirishkor	3	0,4
Muborak	15	2,2
Nishon	23	3,3
Kasbi	11	1,6
Chiroqchi	83	12,1
Shahrisabz	103	15,0
Yakkabog'	43	6,3

2019-yil yanvar-dekabr oylarida 687 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,7

martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Shahrizabz tuman (103 ta), Qarshi shahar (92 ta), Shahrizabz shahar (91 ta) va Chiroqchi tumanlari (83 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mirishkor (3 ta), Dehqonobod (6 ta) hamda Kasbi (11 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 38,0 % yoki 261 tasi sanoat, 24,9 % yoki 171 tasi savdo, 17,6 % yoki 121 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13,1 % yoki 90 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,3 % yoki 9 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,9 % yoki 6 tasi qurilish, 0,6 % yoki 4 tasi axborot va aloqa hamda 3,6 % yoki 25 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-84-10 (11)